

IBN MOLIK HAYOTI VA UNING ARAB TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O'RNI

Sirojiddin Sotvoldiyev Maxammaddin o'g'li

Oriental universiteti

sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada arab tilshunosligiga katta hissa qo'shgan Ibn Molik haqida so'z boradi. Arab tili o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa tillardan farq qiladi, jumladan, atamalar, ta'riflar, til hodisalariga yondashuv va boshqa jihatlari bilan. Ulardan biri har qanday ilmiy tushunchaning, albatta, dastlab lug'aviy, so'ng uning istilohiy ma'nolariga e'tibor qaratilishidir. Bunday uslubni boshqa tilshunoslik maktablarida deyarli uchratmaymiz. Darhaqiqat, bu arab nazariy tilshunosligining o'ziga xos xususiyati va yutug'idir. Arab tili grammatikasining tarixiy taraqqiyotida alohida o'rin tutuvchi asarlar sirasidan Xalil ibn Ahmadning «Al-Ayn», Sibavayhning «Al-Kitob», Zamaxshariyning «Al-Mufasssal» asarlarini sanash mumkin. Bu kitoblar qatoriga shubhasiz «Al-Xulosatu fi-n-nahv» asari ham kiradi. Bu kitob ko'proq ikkinchi nomi – «Alfiyatu-bni Molik fi-n-nahvi va-s-sarf», yana ham qisqa shaklda aytganda «Alfiya» nomi bilan shuhrat qozongan. Ta'bir joiz bo'lsa, mashhurlik bobida bu kitob bilan faqatgina Sibavayhning «Al-Kitob»i raqobat qilishi mumkin. «Alfiya» asarining muallifi Ibn Molik arab tilshunosligi tarixida o'chmas iz qoldirgan siymolardan biri sifatida e'tirof etiladi.

***Kalit so'zlar:** Ibn Molik, arab tili, Zamaxshariy, Alfiya, nahv, sarf, lug'aviy ma'no, istilohiy ma'no.*

IBN MALIK'S LIFE AND ITS PLACE IN ARABIC LINGUISTICS

ABSTRACT

This article talks about Ibn Malik, who made a great contribution to Arabic linguistics. The Arabic language differs from other languages in a number of its features, including terms, definitions, approach to language phenomena, and other aspects. One of them is to pay attention to any scientific concept, first of all, to its lexical and then to its terminological meanings. We hardly find such a style in other linguistic schools. In fact, this is a unique feature and achievement of Arabic theoretical linguistics. "Al-Ain" by Khalil ibn Ahmad, "Al-Kitab" by Sibawayh, "Al-

Mufassal" by Zamakhshari can be counted among the works that have a special place in the historical development of Arabic grammar. Al-Khulosatu fi-n-nahv is undoubtedly one of these books. This book is more famous under its second name - "Alfiyatu-bni Malik fi-n-nahvi wa-s-sarf", and in a shorter form, "Alfiya". So to speak, only Sibawayh's "Al-Kitab" can compete with this book in terms of popularity. Ibn Malik, the author of "Alfiya" is recognized as one of the figures who left an indelible mark in the history of Arabic linguistics.

Keywords: *Ibn Malik, Arabic language, Zamakhshari, Alfiya, nahw, sarf, lexical meaning, idiomatic meaning.*

KIRISH

Hozirgi vaqtda ham birgina Qur'on va hadis tili bo'lmish arab tilining fonetik, leksik-semantik va stilistik xossalari tadqiq etilayotgan ilmiy izlanishlarning o'zi bir necha o'n mingdan ortadi. O'zbek arabshunosligi tarixiga nazar solinsa, bu yo'nalishda salmoqli ishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Xususan, arab tili grammatikasi tarixi, ilmiy maktablar, yetakchi nahvshunos olimlar hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganish bo'yicha izlanishlar davom etmoqda.

Arab tili grammatikasining tarixiy taraqqiyotida alohida o'rin tutuvchi asarlar sirasidan Xalil ibn Ahmadning «Al-Ayn», Sibavayhning «Al-Kitob», Zamaxshariyning «Al-Mufassal» asarlarini sanash mumkin. Bu kitoblar qatoriga shubhasiz «Al-Xulosatu fi-n-nahv» asari ham kiradi. Bu kitob ko'proq ikkinchi nomi – «Alfiyatu-bni Molik fi-n-nahvi va-s-sarf», yana ham qisqa shaklda aytganda «Alfiya» nomi bilan shuhrat qozongan. Ta'bir joiz bo'lsa, mashhurlik bobida bu kitob bilan faqatgina Sibavayhning «Al-Kitob»i raqobat qilishi mumkin.

«Alfiya» asarining muallifi Ibn Molik arab tilshunosligi tarixida o'chmas iz qoldirgan siymolardan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning to'liq ismi Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik Jamoliddin Abu Abdulloh at-Toiy al-Jayyoniy ad-Dimashqiylidir. Biroq manbalarda olimning to'liq ismi borasida turfa ma'lumotlar uchraydi, jumladan:

- 1) Muhammad ibn Molik;
- 2) Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik;
- 3) Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdulloh – ikki marta – ibn Molik;
- 4) Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdulloh ibn Abdulloh – uch marta – ibn Molik;
- 5) Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik;
- 6) Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdulloh – ikki marta – ibn Muhammad ibn Molik.

Dastlabki uchta naql bir-birini to'ldiradi va olimning dastxati tushirilgan ijozatda ham shu shaklda keltirilgan¹. Molik esa uning mashhur bobolaridan birining ismi bo'lib, olimning oilasi o'zini shu ajdodlariga nisbat berishga odatlangan. Bu arablar tarixida keng tarqalgan odat bo'lib, o'zlarini nasablaridagi eng mashhur ajdodlariga nisbat berishni yaxshi ko'rishgan.

To'rtinchi, beshinchi va oltinchi naqlar esa Burhon ibn Qayyim, al-Harroviy, Ibn Tulun, ad-Damominiy va Ibn Qozi Shuhba kabi shorihlarning qo'lyozmalarini tahqiq qilishda yo'l qo'yilgan xatoliklar ortidan yuzaga kelgan².

Tazkirachilar Ibn Molikning kunyasi Abu Abdulloh bo'lganini birday ta'kidlashgan. Jamoliddin esa olimning laqabi sanaladi. «Alfiya»ning muqaddima qismi birinchi baytida shunday deyiladi:

قَالَ مُحَمَّدٌ هُوَ ابْنُ مَالِكٍ
أَحْمَدُ رَبِّي اللَّهُ خَيْرَ مَالِكٍ³

Ma'nosi: «Muhammad – u Ibn Molikdir – aytadi: «Podshohlarning afzali Robbim Allohga hamd aytaman».

Ibn Molik qadim Andalus – hozirgi Piriney yarim orolidagi Qurtuba (Kardoba) shahri yaqinida joylashgan Jayyon nohiyasida dunyoga kelgan. To'liq ismidagi al-Jayyoniy nisbati shunga ishora qiladi. Ammo uning tavallud sanasi haqida tarzkiralarda turli raqamlar ko'rsatiladi:

1) hijriy 597-yil. Bu taxmin olim 75 yoshda vafot etgan degan qayddan kelib chiqqan;

2) hijriy 598-yil. Bu al-Harroviy, Ibn Qozi Shuhba, Ibn Maktum, Ibn al-G'oziy, Ibn Tulun, al-Xuzariy va Ibn al-Jazariyning so'zlariga ko'ra;

3) hijriy 600-yil. Bu Abdulboqiy al-Yamaniy, Ibn Shokir, Ibn Kasir, Feruzobodiy va as-Suyutiy⁴ kabi olimlarning qaydlariga ko'ra;

4) hijriy 601-yil. Bu Ibn Aybakning naqliga ko'ra.

Imom az-Zahabiy, Burhon ibn Qayyim, as-Subkiy, s-Suyutiy, Ibn al-Maqarriy, Ibn Imod esa olimning tavallud sanasini hijriy 600–601-yillar deb ko'rsatishgan. Bu qaydlar orasidagi nisbatan to'g'rirog'i hijriy 598-yil bo'lib, Ibn Molikning hamasri bo'lgan Kamoliddin ibn Adiyim (vafoti hijriy 660-yil) o'zining «Bug'yatu-t-talab fiy tarixi Halab» asarida shu fakti keltirgan⁵. Ibn Molikning vafot sanasi esa hijriy 672-yil ekaniga barcha tazkiranavislar ittifoq qilishgan.

¹ Ibn Molik qiroat ilmlariga bag'ishlangan «Al-Molikiyya fi-l-qiroat» manzumasidan shogirdi Muhammad ibn Mansur ash-Shofeyy al-Halabiya o'z dastxati bilan 666-yilning muharram oyida ijozat yozib bergan.

² سليمان ابن عبد العزيز. ألفية ابن مالك في النحو و الصرف. -الرياض: مكتبة دار المنهاج. -ص.14.

³ ابن مالك. الخلاصة في النحو. -القاهرة: دار المنهاج. 2000. -ص.4.

⁴ جلال الدين السيوطي. المزهرة في علوم اللغة وأنواعها - المكتبة العصرية. جلد 2. -ص.397.

⁵ كمال الدين ابن عديم. بغية الطلب في تاريخ حلب. -بيروت. 1998. -ص.245.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tazkira kitoblarida Ibn Molikning go‘zal axloqi, tavozezi, saxovati-yu taqvosi ko‘p vasf qilingan. Hatto olimning xulqi zarbulmasal darajasida el og‘ziga tushgan. Ibn Molik ilmga bag‘oyat sadoqat bilan xizmat qilib, hattoki vafot etar kunida ham arab tili qoidalariga oid sakkizta dalilni yod olgani manbalarda zikr etilgan¹.

Bu jonkuyar ustoz Islom olamiga qator marvaridlarni tarbiyalab yetkazdiki, ular orasida Muhammad Badruddin, imom an-Navaviy, Ibn Ja‘van, Ibn Munajja, ay-Yuniyiy, Baho ibn Nuhhos, Ibn Nuhhos ad-Dimashqiy, Shahobiddin ash-Shag‘uriy, Ibn Abulfath al-Ba‘liy, al-Foriqiy, Ibn Hozim al-Azraiy, Ibn Tammom, Majduddin al-Ansoriy, Ibn al-Attor, Alouddin al-Ansoriy, Abussana al-Halabiy, Abu Bakr al-Mizziy kabi atoqli nomlarni ko‘rish mumkin.

Ibn Molik o‘z ilmining darajasiga ishora qilish uchun ba‘zan shayx an-Navaviy, al-Foriqiy, Shamsu-l-Ba‘liy va Zayn al-Mizziy kabi ulamolar uning shogirdlaridan bo‘lganini aytib faxrlanar ekan. Qoziy-l-quzot Ibn Xallikon Ibn Molikni qattiq hurmat qilganidan agar Odiliya madrasasida birga namoz o‘qishsa, Ibn Xallikon Ibn Molikni uyigacha kuzatib qo‘yar ekan.

Ibn Molik shuncha fazilatlariga qaramay, avvalo nahv olimi edi. Ko‘zga ko‘ringan, o‘z davrining «maliku-n-nahvi» edi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. U har bir istilohni mohiyati bilan anglar va o‘quvchilariga ham anglata olardi. Masalan, «Alfiya» manzumasida fe‘lga quyidagicha ta‘rif bitilgan:

بِنَا فَعَلْتِ وَأَنْتِ وَيَا أَفْعَلِي
وَنُونٍ أَفْعَلْنَ فِعْلٌ يَنْجَلِي

Ma‘nosi:

«Fa‘alta»dagi «ta» -yu «if‘alii»dagi «ya»

Va «aqbilanna»dagi «nun»-la aniqlanar fe‘l...»

Bu yerda musannif fe‘l qabul qilishi mumkin bo‘lgan xos qo‘shimchalarga ishora qilmoqda. Bular:

- o‘tgan zamon shaxs-son qo‘shimchalari;
- buyruq shaklidagi ikkinchi shaxs muannas jins birlik qo‘shimchasi;
- kuchaytirma mayl qo‘shimchasi («nuni ta‘kid”).

Ibn Molikning hayotlik chog‘idayoq kitoblari xoslar tomonidan ham, avom tomonidan ham maqtovgaga sazovor bo‘ldi. Ibn Molik kitoblari asosida darslar o‘tilar, uning risolalariga sharhlar, hoshiyalar, ziyodalar yozilardi. Olimning kitoblaridan ayrimlari bizning kunimizgacha yetib kelgan. Tazkira kitoblarida Ibn Molikning

¹ كمال الدين ابن عديم. بغية الطلب في تاريخ حلب. بيروت. 1998. ص. 245.

shaxsiy hayotiga tegishli ma'lumotlar deyarli yo'q. Faqatgina Mashriqda istiqomat qilgan paytida uning Muhammad ismli uch nafar o'g'li bo'lgani aytiladi. To'ng'ich o'g'li Muhammad Taqiyuddin Asad bo'lib, otasi unga bag'ishlab nahv faniga oid «Al-Muqaddimatu-l- asadiyya»ni yozgan. Tarajum kitoblarida u haqida ma'lumot yo'qligining sababi, ehtimol, u ilmiy hayotdan va ilm ahlidan uzoq bo'lganidir. Muhammad Taqiyuddin hijriy 659-yilda vafot etgan.

O'rtancha o'g'li esa Muhammad Shamsuddin bo'lib, ko'p tilovat qiladigan shayx sifatida tilga olinadi va Jomi'u-l-umaviyda qirq yildan ko'proq dars berib, hijriy 719-yilda vafot etgan. Olimning kenja o'g'li Muhammad Badruddin ahli ilm orasida Ibn Nozim yoki Ibn Musannif degan kunya bilan mashhur bo'lgan. Mana shu farzandi mashhurroqdir. Otasiga shogird tushib, uning «Alfiya»sini va yana ba'zi bir kitoblarini sharh qilgan. Hijriy 686-yilda vafot etgan¹.

Ibn Molikning ustozlari haqida so'z ketar ekan, andalusiyalik ikki olim nomi avvalgilardan bo'lib zikr qilinadi. Ulardan biri Ibn Molik Jayyonda qiroatdan dars olgan ustoz Sobit ibn Xoyyar al-Lablabiy bo'lsa, ikkinchisi bir necha kungina ilmidan istifoda qilgan shayxi ash-Shalavbindir.

Ibn Molikning Shomdagi ustozlari safi ancha keng bo'lib, ular orasida Hasan ibn Sabah, Ibn Abiy Saqr, Ibn Xabboz al-Mavsiliy, as-Saxoviy, Ibn Yaish, Ibn Hojib, Ibn Amrun, Muhammad ibn Abul Fazl al-Mursiy kabi o'z davrining peshqadam ziyolilari bor.

Biroq manbalarning guvohlik berishicha, Ibn Molik qiroat ilmlaridan ham yaxshi darajada boxabar bo'lgan va shogirdlariga ijozatlar berib turgan. Xususan, qiroatlar ilmiga bag'ishlangan «Al-Molikiyya fi-l-qiroat» manzumasidan shogirdi Muhammad ibn Mansur ash-Shofey al-Halabiyga o'z dastxati bilan hijriy 666-yilning muharram oyida yozib bergan ijozati Damashqdagi Zohiriyya kutubxonasida saqlanayotgani ma'lum.

Ibn Molikning islomiy ilmlar rivojiga qo'shgan hissasi aksariyat tarixchi va tazkiranavislar tomonidan alohida e'tirof etilgan. Jumladan, as-Sofadiy o'zining tazkirasida Sa'duddin Muhammad ibn Arabiyning Ibn Molikni madh etuvchi baytlarini keltiradi:

إِنَّ الْإِمَامَ جَمَالَ الدِّينِ جَمَلَهُ
رَبُّ الْعُلَا وَ لِنَشْرِ الْعِلْمِ أَهْلَهُ
أَمَلَى كِتَابًا لَهُ يُسَمَّى الْفَوَائِدَ لَمْ
يَزَلْ مُفِيدًا لِذِي لُبِّ تَأَمَلَهُ
وَ كُلُّ مَسْأَلَةٍ فِي النَّحْوِ يَجْمَعُهَا

حاجي خليفة. كشف الظنون عن اسامي الكتب و الفنون. ج. 1. - مصر: دار السعادت، 1894. ص.125.¹

إِنَّ الْفَوَائِدَ جَمْعٌ لَا نَظِيرَ لَهُ¹

Ma'nosi: «Oliylik Robbi ilm yoygani uchun imom Jaloliddinni (oxiratini) go'zal qilsin va O'z ahlidan aylasin. Uning «Favoid» deb nomlangan kitobi uni taammul qilgan aql egasi uchun foydalidir. Nahvdagi barcha masalani shunda jamlagan, darhaqiqat, barcha foydalar jam, o'xshashi yo'qdir».

Imom az-Zahabiy esa «Uning turli ilmlardagi peshqadamligi mustahkam din, sof lahja, ko'p nafl ibodat, go'zal sukut, komil aql va viqor sohibi bo'lgani tufaylidir»², deb yozadi.

Imom Ibn al-Jazariy esa Ibn Molikning ilmiy salohiyatiga yuqori baho berib, «...arab tili bo'yicha o'z zamonasining imomi edi»³, deya ta'riflaydi va qiroat ilmlariga qo'shgan hissasiga urg'u berib: «U bor kuch-g'ayratini arab tilini takomillashtirishga sarfladi. Shuningdek, qiroatlar va ularning sabablari bobida ham peshqadam olim edi, bu borada «Shotibiyya»ga ramzan «Doliyya» qasidasini tasnif qildi»⁴, deb yozadi.

NATIJALAR

Jamoliddin ibn Molik at-Toiy ad-Dimashqiy ko'zga ko'ringan nahv olimlaridan hisoblanadi. Olim yozib qoldirgan asarlar salmog'i juda baland. Jumladan, u nahv (sintaksis), sarf (morfologiya), lug'atshunoslik, qiroat ilmlari va boshqa sohalarga oid o'nlab risolalar muallifidir. Uning ilmiy kitoblariga qaraydigan bo'lsak, asosan ikki uslubni ko'rishimiz mumkin. Avval biror-bir mavzuda juda muxtasar qilib bir ilmiy risola yozadi. Keyinchalik lozim topsa, ana shu kichik risolani juda keng qilib sharh qiladi. Olim o'nga yaqin o'zi yozgan kitoblarini ana shu usulda sharh qilgan. Bir qator asarlari Ibn Molik tiriklik vaqtidayoq hamasr ulamolar tomonidan e'tirof etilgan va ta'lim maskanlarida muallimlar uning kitoblari asosida tolibi ilmlarga dars o'ta boshlashgan. Kitoblaridan ba'zilar bizning kunimizgacha yetib kelgan.

Nahv (sintaksis)ga doir:

– «Tas'hilu-l-favoid va takmilu-l-maqosid» (bu Ibn Molikning eng yirik kitobi bo'lib, unga muallifning o'zi ham sharh yozgan). Bu asarning ahli ilm orasidagi qadri g'oyat yuqori bo'lib, Sa'duddin Muhammad ibn Arabiy uni quyidagicha maqtagan:

أَمْلى كِتَابًا لَهُ يُسَمَّى الْفَوَائِدَ لَمْ
يَزَلْ مُفِيدًا لِذِي لُبٍّ تَأَمَّلَهُ
وَ كُلُّ مَسْأَلَةٍ فِي النَّحْوِ يَجْمَعُهَا
إِنَّ الْفَوَائِدَ جَمْعٌ لَا نَظِيرَ لَهُ⁵

¹ الصفدي. فوات الوفايات. بيروت: دار صادر. 1973. 3-مجلد. ص.408.

² الصفدي. الوافي بالوفيات. القاهرة: دار إحياء التراث العربي. 3-مجلد. ص.360.

³ ابن الجزري. غاية النهاية. القاهرة: دار الراشد. 1999. ص.125.

⁴ ابن الجزري. غاية النهاية. القاهرة: دار الراشد. 1999. ص.126.

⁵ الصفدي. فوات الوفايات. بيروت: دار صادر. 1973. 3-مجلد. ص.408.

Ma'nosi: «Uning «Favoid» deb nomlangan kitobi uni taammul qilgan aql egasi uchun foydalidir. Nahvdagi barcha masalani shunda jamlagan, darhaqiqat, barcha foydalar jam, o'xshashi yo'qdir»;

– «Al-xulosatu fi-n-nahv» («Alfiya» nomi bilan shuhrat tutgan bu asar Ibn Molikning eng mashhur risolasidir);

– «Sharhu 'umdati-l-hofizi va 'uddati-l-lohizi»;

– «Shavohidu-t-tavzihi va-t-tas'hih li-mushkilati-l-Jomi'i-s-sahih»;

– «Al-kofiyatu-sh-shofiya» va uning sharhi;

– «An-nukatu-n-nahviyya 'ala muqaddimati-Bni-l-Hojib».

Sarf (morfologiya)ga doir:

– «At-ta'rif fi zaruriyyi-t-tasrif»;

– «Lamiyyatu-l-af'al»;

– «I'juzu-t-ta'rif fiy 'ilmi-t-tasrif».

Lug'at ilmi (leksikografiya)ga doir:

– «Al-I'tizod fi-l-farqi bayna-z-zoi va-dz-dzod» va uning sharhi;

– «Al-I'timodu fiy nazoiru-z-zoi va-dz-dzod»;

– «Tuhfatu-l-mavdud fi-l-maqsuru va-l-mamdud»;

– «Sulosiyyotu-l-af'ol»;

– «Al-'i'lam bi-musallasi-l-kalam» (bu asar manzuma bo'lib, 2704 baytdan iborat);

– «Al-i'lam bi-taslisi-l-kalam» (nasriy risola bo'lib, 96 ta «المثلث المنفق» harakatlari o'zgarsa-da, ma'nosi o'zgarmaydigan so'zlar, 697 ta «المثلث المختلف المعني» harakatlari o'zgarishi bilan ma'nosi ham o'zgaruvchi so'zlarni qamrab olgan);

– «Al-Ikmalu-l-i'lam bi-taslisi-l-kalam» (bu asar ham manzuma bo'lib, shakldosh-talaffuzdosh so'zlarga oid qimmatli manba sanaladi) va boshqalar.

Qiroatlar ilmiga doir:

– «Al-Molikiyya» yoki «Ad-doliyya» manzumasi.

Ibn Molik nahvshunos, tilshunos va muqri' edi. Sarf va nahvda o'z davrining imomi (peshqadami), lug'at ilmi u bilan takomilga yetgan, qiroatlar ilmida ishonchli va hofiz edi.

Ibn Molik tilshunoslikning har ikki bo'limini ham mukammal o'zlashtirgan edi. U morfologiya va sintaksis bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro munosabatda bo'lgan sohalari ekanini yaxshi anglagan. Gap turlari (darak, so'roq, buyruq, undov gaplar)ning bir-biridan farqlanishi, asosan, kesimlarning qanday so'z turkumi orqali ifodalanishiga bog'liqligi; so'z birikmalari ham boshqaruvchi bo'lakning qanday so'z turkumi ekanligiga qarab tasnif qilinishi; nisbiy ergash gaplar bosh gap tarkibidagi so'zning qaysi kelishikda ekanligiga qarab, ega, kesim yoki to'ldiruvchi ergash gaplarga

ajratilishi kabi masalalar hamma zamonlarda ham tilshunoslikning muhim tadqiqot mavzulari sanalib kelgan.

Ibn Molik tilshunoslikning bunday murakkabliklariga qaramay, ba'zi kitoblarini nazmda yozgan. Chunki nazm yodlash va takrorlash uchun qulay mezon sanaladi. Olimning eng katta manzumalaridan biri aruzning rajaz bahrída yozilgan va sarf-nahv qoidalarini o'z ichiga olgan qariyb uch ming baytdan iborat¹ «Al-Kofiyatu-sh-shofiya» asaridir. Keyinchalik bu manzumani muallifning o'zi qisqartirib, baytlari sonini qariyb mingtaga yetkazadi. Aniqrog'i, bir ming to'rt baytga. Bu kichik manzuma katta manzumadagi qoidalarning xulosasi bo'lgani uchun «Al-Xulosatu fi-n-nahv» («Nahv haqida xulosa») deb nomlandi. Davrlar o'tishi bilan bu manzuma xalq orasida «Alfiya», ya'ni «Minglik» nomi bilan mashhur bo'lib ketdi², bu uning baytlari soniga ishoradir.

MUHOKAMA

Ibn Molik qalamiga mansub urjuzalar orasida lug'at ilmiga taalluqli bir necha asarlar bor, jumladan «Al-i'lām bi-musallas-l-kalām», «Al-i'lām bi-taslīsi-l-kalām» va «Al-Ikmālu-l-'i'lām bi-taslīsi-l-kalām» lug'atlaridir. Mazkur asarlar arab tilining shakldosh-talaffuzdosh so'zlarini o'rganuvchi tarmog'iga bag'ishlangan.

«Al-Ikmālu-l-'i'lām bi-taslīsi-l-kalām» asarining mo'tabar nusxasi hozirda Turkiyaning Fayzulloh Afandi kutubxonasida saqlanmoqda. Bu nusxa 1324-yilda ko'chirilgan. Asarning yana bir qo'lyozmasi Damashqning Zohiriyya kutubxonasida saqlanayotgani ma'lum. Bu nusxa «Risālatu fi-taslīsi-l-kalām» деб номланган va 178 varaqdan iborat, nasx xatida ko'chirilgan (1337-yil).

Ibn Molik «Al-i'lām bi-taslīsi-l-kalām» nomli lug'atida o'zak harflari bir xil, ammo qisqa harakatlar bilan farq qiluvchi so'zlarni jamlab, ularni ikki bobga – «المثلث المعني», ya'ni harakatlari o'zgarishi bilan ma'nosi ham o'zgaruvchi (omonim va paronim) so'zlar va «المثلث المتفق المعني», ya'ni harakatlari o'zgarsa-da, ma'nosi o'zgarmaydigan (so'z variantlari) so'zlarga ajratgan.

Muallifning bu lug'atni tuzishdagi prinsiplarini quyidagicha baholash mumkin:

1) Muallif avval – «المثلث المعني», ya'ni harakatlari o'zgarishi bilan ma'nosi ham o'zgaruvchi (omonim va paronim) so'zlarni, keyin «المثلث المتفق المعني», ya'ni harakatlari o'zgarsa-da, ma'nosi o'zgarmaydigan (so'z variantlari) so'zlarni keltiradi;

2) Ibn Molik imkon qadar qisqalikka, muxtasar va ixcham risola yozishga e'tibor qaratgan;

¹ Al-Kofiyatu-sh-shofiya (https://ar.wikipedia.org/wiki/ألفية_ابن_مالك)

² Al-Xulosatu fi-n-nahv (manhaju ibn malikfiy)«Alfiya»tihi. Doktor Sulton ibn Avvad.)

3) Mazkur lugʻatda 96 ta soʻz varianti, 697 ta omonim va paronim soʻzlarni izohlangan;

4) 697 ta omonim va paronim soʻzlarning 574 tasi ism, 123 tasi feʼl (moziy) soʻz turkumiga oid.

Ibn Molik bu turfagi lugʻatlarni tuzishda Ibn Sayyidahning «Al-muhkām», Abu Isʻhoq Forobiyning «Dīwān al-adab», «Muthallath^u Quṭrub^a», Sibavayhning «Al-kitāb», Ibn Sayyid Batalyavsiyning «Al-ʻiqtidhāb fīy sharh ʻādāb-il-kuttāb» nomli manbalarga murojaat qilgan.

Ibn Molik arab tilining oʻtkir bilimdoni sifatida tilshunoslikning har bir tarmogʻini yuqori darajada oʻzlashtirgan edi. Birgina harf soʻz turkumi borasida ham predloglarning nozik maʼno qirralarini angʻlay olardi.

XULOSA

Bir necha asrlar oʻtmoqdaki, Ibn Molikning asarlariga qiziqish kamaymayapti. Birgina «Alfiya» asarining sharhlari borasida soʻz borganda, asarga yozilgan sharhlarni tadqiq qilgan ulamolar ularning soni 174 taga yetganini aytadilar¹. Ana shu sharhlarning eng mashhurlari:

1. Ibn Molikning oʻgʻli Badriddin Muhammad ibn Muhammad (vafoti hijriy 686-y.)ning sharhi. Bu sharh «Sharhu Ibn Nozim» nomi bilan mashhur.

2. Shamsuddin Muhammad ibn Yusuf (vafoti hijriy 711-y.)ning sharhi. U kishi oʻzining sharhini «Koshifu-l-xososo an alfazi-l-xulosa» deb nomlagan.

3. Asiruddin Muhammad ibn Yusuf Abu Hayyon al-Andalusi (vafoti hijriy 745-y.)ning sharhi. U kishi oʻz sharhlarini «Manhaju-s-salik fi Alfiyati ibn Molik» deb nomlagan. Lekin muallif bu sharhni oxiriga yetkazishga ulgura olmay vafot etgan.

4. Abu Zayd Abdurrahmon ibn Aliy al-Makudiyning sharhi (vafoti hijriy 807-y.). Bu kishining sharhlari har xil ixtilofli masalalardan xoli sharh hisoblanadi.

5. Al-Murodiy Hasan ibn Qosimning sharhi (vafoti hijriy 749-y.). U kishi oʻz sharhini «Tavzihu-l-maqosid va-l-masalik bi-sharhi Alfiyati Ibn Molik» deb nomlagan.

6. Ibn Hishom al-Ansoriy nomi bilan tanilgan Jamoluddin Abdulloh ibn Yusufning sharhi (vafoti hijriy 761-y.). U kishi oʻz sharhini «Avzohu-l-masalik ila Alfiyati Ibn Molik» deb nomlagan.

7. Abu Abdulloh Bahouddin Ibn Aqiylning sharhi (vafoti hijriy 769-y.). Bu kishining sharhi oson va yengilligi bilan ajralib turadi. Bu sharh talabalar uchun juda manfaatli boʻlganligi sababli unga oʻnlab hoshiyalar ham yozilgan.

8. Abul Hasan Aliy ibn Muhammad al-Ashmuniyning sharhi (vafoti hijriy 918-y.).

9. Jaloliddin as-Suyutiyning sharhi (vafoti hijriy 911-y.)².

¹ Ibn Molik. Alfiya (<http://www.alnoor.se/article.asp?id=88914>).

² As-Suyuti. Alfiya (https://www.islamspirit.com/islamspirit_ency_275.php).

Ibn Molikning birgina «Alfiya» manzumasiga yozilgan sharhlar sonidan ham ko‘rinib turibdiki, Ibn Molikning arab tili grammatikasi rivojidadagi o‘rni va mavqei baland bo‘lib, olimning morfologiya, sintaksis, leksikografiya, qiroatlar ilmiga oid risolalari bugun ham o‘z ahamiyati va qiymatini yo‘qotgan emas. Ibn Molik o‘z davrining «maliku-n-nahvi» sifatida tilshunoslikning dolzarb va bahsli mavzulari haqida o‘z ilmiy qarashlarini bayon etdi.

1. Ibn Molikning to‘liq ismi Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik Jamoliddin Abu Abdulloh at-Toiy al-Jayyoniy ad-Dimashqiydir.

2. U hijriy 598-yilda tavallud topgan va hijriy 672-yilda vafot etgan.

3. Tazkira kitoblarida Ibn Molikning go‘zal axloqi, tavozesi, saxovati-yu taqvosi ko‘p vasf qilingan. Hatto olimning xulqi zarbulmasal darajasida el og‘ziga tushgan. Ibn Molik ilmga bag‘oyat sadoqat bilan xizmat qilib, hattoki vafot etar kunida ham arab tili qoidalariga oid sakkizta dalilni yod olgani manbalarda zikr etilgan¹

4. Ibn Molikning yuksak salohiyati, iqtidori va xushtab‘i unga islomiy ilmlar osmonida yorqin yulduzlardan biri bo‘lib porlashiga sabab bo‘ldi. U arab tili rivojiga munosib hissa qo‘shdi va o‘zidan so‘ng o‘nlab qimmatli asarlar qoldirdi.

5. Ibn Molik nahv (sintaksis), sarf (morfologiya), lug‘atshunoslik, qiroat ilmlari va boshqa sohalarga oid o‘nlab risolalar muallifidir.

6. Ibn Molikning arab tili grammatikasi rivojidadagi o‘rni va mavqei baland bo‘lib, Ibn Molikning morfologiya, sintaksis, leksikografiya, qiroatlar ilmiga oid risolalari bugun ham o‘z ahamiyati va qiymatini yo‘qotgan emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. –Toshkent: ToshDShI, 2008. – 236 b.

2. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси (муфассир шайх Муҳаммад Содиқ МУҳаммад Юсуф). –Тошкент: Hilol-nashr, 2018. – 616 б.

3. Шамсиев П. Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. –Тошкент: Фан, 1986. –305 б.

4. . Сирожиддинов Ш. Ўзбек матншунослиги қирралари. –Тошкент: Академнашр, 2015. -186 б.

5. 10. ابن خلكان. وفيات الأعيان ابناء ابناء الزمان. – مصر: ١٨٨١. ج. ١. – 856 ص

6. 11. ياقوت حموى. معجم البلدان. – مصر: مطبعة السعادة، 1906. – 1054 ص

7. 12. حاجى خليفة. كشف الظنون عن اسامى الكتب و الفنون. ج. 1. - مصر: دار السعادت،

1894. – 648 ص.

8. 13. سليمان ابن عبد العزيز. ألفية ابن مالك في النحو و الصرف. –الرياض: مكتبة دار

المنهاج. 1996. -ص748.

¹ كمال الدين ابن عديم. بغية الطلب في تاريخ حلب. –بيروت. 1998. ص.245.